

IMOM BUXORIY — ISLOM ILMIDA BURILISH NUQTASI

Nafosat Komiljonova

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Fakultet: Davolash ishi. Fan: Dinshunoslik.

Umarova F.S.

F.f.n. dos. O`qituvchi. Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18968152>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ulug' vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi va u kishi aslida kim bo'lganliklari, shuningdek, Buxoriy haqida biz bilmagan ma'lumotlar xususida so'z boradi. Unda allomaning ilm yo'lida bosib o'tgan yo'llari, nafaqat Islom olami ilmiga, balki jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi, ilmiy meroslarining kelajak yoshlari hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yurtimizda vatandoshimizning ilmiy merosini o'rganish borasida olib borilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Imom Buxoriy, hadis, ilm, "At-Tarix al-Kabir", "Al-Jome' as-sahih", Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi.

Insoniyat tarixi shunday jarayonlarga guvohki, gohida qonli muhorabalar va siyosiy o'zgarishlar kutilmagan ma'naviy yuksalishlarga poydevor bo'ladi. VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Arab xalifaligining Movarounnahr hududiga qilgan harbiy yurishlari Markaziy Osiyo taqdirida ana shunday burilish nuqtasi bo'ldi. Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi qo'shinlar Amudaryo ortidagi ushbu zaminni fath etar ekan, o'zlari bilan nafaqat yangi boshqaruv tizimini, balki dunyoqarashni butkul o'zgartiruvchi qudratli kuch — Islom dinini olib keldilar.

Dastlabki harbiy to'qnashuvlar va ijtimoiy larzalardan so'ng, mintaqada o'ziga xos madaniy sintez vujudga keldi. Mahalliy xalqlarning qadimiy intellektual salohiyati Islom ma'rifati va arab tili bilan birlashdi. Bu jarayon VIII–IX asrlarga kelib bashariyat tarixidagi eng yorqin sahifalardan biri — Sharq Uyg'onish davri (Birinchi Renessans) boshlanishiga turtki berdi. Aynan mana shu ma'naviy va ilmiy yuksalish muhiti Bag'doddan Samarqandgacha bo'lgan masofada fan va madaniyatning gullashini ta'minladi. Xorazmiyning aniq fanlaridagi kashfiyotlari, Farg'oniyni astronomik kuzatuvlari bilan bir qatorda, Islom olamining ma'naviy ustuni bo'lmish Hadis ilmi ham o'zining eng yuksak nuqtasiga yetdi.

Bu davrning eng yirik va beqiyos siymosi, shubhasiz, "Muhaddislar sultoni" deya e'tirof etilgan ulug' vatandoshimiz Imom al-Buxoriydir. U kishi o'zining betakror ilmiy faoliyati bilan nafaqat hadis ilmini tizimga soldi, balki O'rta Osiyoning intellektual qudratini butun dunyoga namoyish etdi. Imom Buxoriy hadis ilmida "Amir ul - mo'minin" va "Imom al-muhaddisyn" (barcha muhaddislar shoiri) sharaflari unvonlarini olgan. Imom Buxoriy 810-yilning 13-mayida (hijriy 194-yil, shavvol oyining 13-kuni) dunyoga allomalar, ulamolar va shayxlar bilan nom qozongan Buxoroi sharifning ziyolilar uyida tavallud topgan. Otasi Shayx Ismoil ibn Ibrohim hadis ilmini bilgan holda savdo-sotiq bilan ko'proq shug'ullangan. Imom al-Buxoriydan xulosa qilish mumkinki, otasining familiyasi va uning nasabnomasi, umuman olganda, Imom al-Buxoriy nasl-nasabi Ibrohim Xalilulloh va Muhammad payg'ambarga borib taqaladi. Yoshligida otasidan yetim qoldi va ko'zlari ojiz bo'lib qoldi. Onasining cheksiz duolari va sabri sharofati bilan Alloh unga ko'rish qobiliyatini qaytardi.

Bu voqea go'yo yosh Muhammadning kelajakda butun Islom olamini jaholat zulmatidan ilm nuri sari yetaklashiga ishora edi. Buxoriy yoshligidan juda iste'dodli va kuchli yodlash qobiliyatiga ega bo'lgan. Onalari Fotima uni 6 yoshidan mahalladagi masjid qoshidagi quttobga o'qishga beradi. Ungacha Buxoriy uyda onalari qo'lida ta'lim olganlar. Onalari ham murattab qori va 8 ming hadisni yoddan bilgan. Buxoriyning birinchi ustozlari maktabdor Muhammad ibn Salom Boykandiy edi. Rivoyat qilinishicha, Buxoriyning ta'lim olgan ustozlari to'qsonga yaqin deb keltiriladi. Sakkiz yuz yigirma oltinchi yil. Hali o'smirlik chog'ida bo'lgan Muhammad ibn Ismoil o'z onasi va akasi Ahmad hamrohligida Buxoro tuprog'ini tark etib, muqaddas haj ibodati uchun Makka sari yo'l oldi. Biroq, bu safar u zot uchun nafaqat farz amalni ado etish, balki butun umrini bag'ishlaydigan ulug' maqsadning iptidasi edi. Haj amallari yakuniga yetgach, akasi va onasi ona yurtiga qaytishga qaror qilishdi, lekin 16 yoshli Muhammadning qalbidagi ilmga bo'lgan tashnalik uni Makkada qolishga majbur qildi. U zot o'sha davrda Islom olamining ilmiy markaziga aylangan Hijozda qolib, bevosita sahobiylarning vorislari — tobi'iyinlar va ularning shogirdlaridan hadis eshitishni ixtiyor etdi.

Makkadagi olti yillik hayot Imom Buxoriy uchun ulkan tayyorgarlik maktabi bo'ldi. U zot bu yerda mashhur muhaddis Humaydiydan dars olar, har bir eshitgan hadisining sanadini (rivoyat qiluvchilar zanjirini) zargardek sinchiklab o'rganar edi. Aynan Makkada, Ka'ba atrofida va Madinada, Payg'ambarimiz (s.a.v.) ravzalari yonida u zot o'zining mashhur "At-Tarix al-Kabir" asarini yozishga kirishdi. Rivoyatlarda aytilishicha, u kishi tunda, oy nurining ostida ijod qilar, har bir ism va voqeani qalbiga muhrlar edi. Bu davr u zotning xotirasi qanchalik ummondek keng ekanligini butun Hijoz ulamolariga isbotlagan davr bo'ldi.

Imom Buxoriyning yozuvchilik faoliyati u zot hali Makkada yashayotgan, bor-yo'g'i 18 yoshli yigit bo'lgan paytlarida boshlangan. Tasavvur qiling, boshqa tengdoshlari endigina dunyoqarashini shakllantirayotgan bir vaqtda, u zot o'zining ilk fundamental asari — "Qazoyas-sahoba wat-to-bi'yn" (Sahobalar va tobe'inlarning hukmlari) kitobini yozib tugatgan edi. Bu asar sahobalarning huquqiy qarashlari va fatvolarini o'z ichiga olgan bo'lib, o'sha davr ulamolari orasida yosh Muhammadning naqadar kuchli zakovat sohibi ekanligini isbotladi. Biroq, u zotning ijodiy cho'qqisi va butun dunyoni lol qoldirgan jasorati Madinada, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning ravzalari yonida namoyon bo'ldi. Aynan o'sha 18 yoshida u zot hadis ilmining eng qiyin sohalaridan biri — roviylar (hadis yetkazuvchilar) tarixiga bag'ishlangan "At-Tarix al-Kabir" (Buyuk tarix) asarini yozishga kirishdi. Bu asarning yozilish jarayoni haqida Imom Buxoriyning o'zlari shunday xotirlaydi: "Men 'At-Tarix al-Kabir'ni Madinada, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qabrlari yonida, oydin kechalarda, oy nurining ostida yozdim. "Bu shunchaki kitob emas, balki Islom tarixidagi minglab shaxslarning hayoti, ularning ishonchliligi va ilmiy darajasini belgilab beruvchi ulkan "ma'lumotlar bazasi" edi. U zotning bu qadar yoshligida bunday murakkab ishga qo'l urishi, uning xotirasi va idroki naqadar benazir bo'lganidan dalolat beradi.

Ustozlaridan biri Ishoq ibn Rohavoy bu asarni ko'rgach, hayrat bilan: "Senga bir sehrni ko'rsatayinmi?" deya Imom Buxoriyning qo'lyozmalarini boshqalarga namoyish etgani tarixdan ma'lum.

Imom Buxoriy o'zining eng mashhur asari — "Al-Jome' as-sahih"ni yozishga ham yigirmalik yoshlarining boshida kirishgan. Bu asar ustidagi ish salkam 16 yil davom etdi. U zot har bir hadisni kitobiga kiritishdan oldin:

- Yuvinib, g'usl qilgan;
- Ikki rakat namoz o'qib, Allohdan so'ragan;
- Hadisning har bir harfini sinchiklab tekshirgan.

Bu vaqt ichida u zot 600 mingdan ortiq hadisni saralab, ulardan eng ishonchli 7275 tasini (takrorlari bilan) kitobga kiritganlar. Ushbu kitobni yozib bitirganida u zot taxminan 38 yoshlarda edilar. Demak, u zotning butun yoshligi, kuchi va g'ayrati aynan mana shu "Oltin silsila"ni yaratishga sarflangan.

U zot ilmdan tashqari tijorat bilan ham shug'ullanganlar. Biroq foydadan ko'ra birovning haqqidan ko'proq qo'r qar edi. Bir safar u zotga bir mol uchun 50 ming dirham foyda va'da qilishadi. Ammo u zot avvalroq boshqa bir savdogarga shu molni sotishni ko'ngliga tugib qo'yganlari uchun, ko'p foydadan voz kechib: *"Men niyat qilib bo'ldim, niyatimni buzmayman"*, deya kamroq foydaga rozi bo'lganlar. Bu u zotning so'zi va amali bir ekanligining yorqin isbotidir.

Imom Buxoriy o'ziga nisbatan qilingan yomonliklarga hamisha yaxshilik bilan javob berganlar. Bir kuni u zot kamon otish mashqini bajarayotganlarida, tasodifan o'q bir ko'prikning ustuniga tegib, uni shikastlaydi. Imom Buxoriy o'sha zahoti ulovidan tushib, ko'prik egasini izlab topadilar va: *"Mendan qanday tovon talab qilsangiz, to'lashga tayyorman yoki o'zim tuzatib beraman"*, deydilar. Ko'prik egasi u zotning olimligini bilgach, haqqidan kechishini aytsa-da, Imom Buxoriy u kishini rozi qilmaguncha tinchimaganlar.

Imom Buxoriy uzoq yillik ilm talabi va safarlaridan so'ng ona yurtlari Buxoroga qaytadilar. Buxoro xalqi u zotni misli ko'rilmagan tantana bilan kutib oldi. Shahar darvozalaridan bir necha chaqirim masofadan boshlab odamlar u kishining poyiga gullar sochishdi, yo'llariga dirhamlar sohib, buyuk muhaddisning kelishini bayram qilishdi. Biroq, bu saodatli kunlar uzoq davom etmadi. Bir qancha fitnalardan so'ng u zot yurtlaridan chiqib ketishga majbur bo'ldilar.

Imom Buxoriy Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida yashovchi qarindoshlarinikiga borib joylashdilar. Ko'p o'tmay u zot xastalanib qoldilar. Vafotlari yaqinlashganini sezgach, kiyimlarini qanday tayyorlashni va qabrlarini qanday qazishni vasiyat qildilar. Milodiy 870-yil (hijriy 256-yil) ramazon hayiti arafasida, shanba kechasi Islom olamining buyuk quyoshi so'ndi.

Imom al-Buxoriy 62 yoshlarida foniy dunyoni tark etdilar. Rivoyatlarga ko'ra, u zotni qabrga qo'yishganida, tuproqdan misli ko'rilmagan darajada xushbo'y — mushk va anbar hidi taralgan. Bu hid bir necha kun davomida odamlarni hayratga solgan. Insonlar u zotning qabridan bir siqimdan tuproq olib keta boshlashgan, hatto qabr ochilib qolish darajasiga yetganda, uni qo'riqlashga majbur bo'lishgan.

Imom Buxoriy juda boy ilmiy meros qoldirgan. Uning "Al-Jome' as-sahih", ("Ishonchli to'plam"), "Al-adab al-mufrad", "At-tarix al-kibor", ("Katta tarix"), "At-Tarix assagiyr", ("Kichik tarix"), "Al-Qirotu xalfa -l-Iymon", ("Imom orqasida turib o'qish"), "Vaf'ul-yadini fi-s- Saloti" ("Ikki qo'lni duoda ko'tarish") kitoblari yetib keldi, ammo "At-Tarixul- avsat" ("O'rta tarix"), "At-Tafsir al- kabir", ("katta sharh"), "Al-Jome' al- kabir " ("katta to'plam"), "Kitob - ul-hiba" ("Sovg'alar kitobi") bizgacha yetib kelmagan.

Mustaqillik sharofati bilan Imom al-Buxoriyning betakror merosi xalqimizga qaytarildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29- apreldagi qaroriga asosan Imom al-Buxoriy ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, uning xotirasini abadiylashtirish borasida

ulkan ishlar amalga oshirildi. 1225 yilligi keng nishonlandi. Alloma joylashgan Payariq tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmuasi ochildi.

Bu ma'lumotlar orqali buyuk vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi, u kishining zakovati, ilmdagi salohiyati haqida, balki xulqlari ham barchamizga ibrat ekanligini bildirish edi. Hozirda XXI asrga kelib yoshlarimiz ilm-fan, madaniyat, kitoblar, yangi texnologiyalar ustida ishlash, turli kashfiyotlar yaratish o'rniga bekorchi ishlar, vaqtni oluvchi turli o'yinlar bilan mashg'ul bo'lib ketishyapti. Ya'ni Imom al-Buxoriy hazratlarining hayot yo'li — bu shunchaki o'tmish xotirasi emas, balki bugungi kun yoshlari uchun muvaffaqiyat, shaxsiy rivojlanish va ma'naviy yetuklikning o'rnak modelidir.

Bugungi yoshlar uchun eng katta sinov — diqqatning tarqoqligidir. Imom Buxoriy esa hali 10 yoshida o'zining hayotiy missiyasini — sahih hadislarini jamlashni aniq belgilab olgan edi. U zot o'z davrining boshqa ko'plab jozibali sohalari bo'lishiga qaramay, bor e'tiborini tanlangan bitta yo'nalishga qaratdi.

Hozirgi axborot to'liqligini asrida har qanday ma'lumotni tekshirmay qabul qilish insonni zalolatga yetaklashi mumkin. Imom Buxoriy — Islom tarixidagi eng birinchi va eng buyuk "faktcheker" (ma'lumot tekshiruvchi) edi. U zot 600 mingdan ortiq ma'lumotni (hadisni) tahlil qilib, ularning ichidan faqat eng ishonchli 1 foizini saralab olgan. U kishi ma'lumotning manbasi, uning yetkazuvchisi va mantiqiy zanjiriga shubha tug'lsa, uni qat'iyat bilan rad etgan. Xulosa qilib aytganda hadislar Muhammad alayhissalomning sunnatlari bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra har bir mo'minning imon va e'tiqodini mustahkamlaydi va shu orqali insonni ma'naviy kamolotga chorlaydi. Chunki Islom dini ma'rifatga asoslanadi, u har bir insonni aqliy, jismonan, axloqiy kamolga yetkazish, ezgulikka xizmat qilish, olijanob bo'lish, pokiza yurish, bir luqma halol yeyish, birodarning g'afolat va jaholatiga yo'l qo'ymaslik, imon-e'tiqod, millat, vatan qadriyatlarini himoya qilishdan iborat. Binobarin, Imom al-Buxoriyning bizga qoldirgan ilmiy merosi, hadislarini komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib, bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ulardan foydalanish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. N. Jo'rayev T. Fayzullayev. "O'zbekistonning yangitarixi" III-kitob. Toshkent-2000. Sharq-nashiryoti matba-konserni.
2. Abu abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. "Al-Jomi as-sahih".Toshkent, 1991, 5-bet. "Qomuslar Bosh tahririyati".
3. Ahmad Muhammad Tursun "Sohilsiz Dengiz" Toshkent 2021
4. Lex.uz.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.1997-yildagi 217-son qarori bo'yicha.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy
6. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 241-244.